O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI TERMIZ TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

Termiz tumani, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 191200, tel.: (+99876) 36-32-200, faks.: (+99876) 36-32-200, termiz.t@exat.uz

2022 - yil 16 - aprel 132-8-117-Q/22 Termiz tuman hokimligi

Tuman hokimining 2021-yil 23-sentyabrdagi “2022-yilda Termiz tumanida ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risida”gi 150-8-117-Q/21-sonli qaroriga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-dekabrdagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko‘maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-57-sonli qarorida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta’minlash maqsadida 2022-yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilish (zahiralash) to‘g‘risida qabul qilingan qaroriga qo‘shimcha ravishda nogironligi bo‘lgan va boshqa toifadagi shaxslar uchun ish o‘rinlarini band qilish maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1.Tumandagi mulkchilik shaklidan qat’iy nazar, xodimlarning ro‘yxatdagi o‘rtacha soni (ilovaga asosan) 20 nafar kishidan ortiqni tashkil etadigan tashkilotlar sonidan kelib chiqib, Termiz tumanida nogironligi bo‘lgan va boshqa toifadagi shaxslar uchun qo‘shimcha 12 ta ish o‘rinlari band qilinganligi korxona va tashkilotlar kesimida belgilanganligi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2.Ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarning ko‘rsatib o‘tilgan toifasiuchun ish o‘rinlari sanitariya-gigiyena me’yorlariga va xodim o‘z mehnat majburiyatlarini to‘siqsiz bajarishini ta’minlaydigan mehnat qilish sharoitlariga muvofiq tashkil etilsin.

3.2022-yilda Termiz tumanida ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish bo‘yicha korxona va tashkilotlar kesimida ish o‘rinlarini tashkil etish ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4.Ilovada ko‘rsatilgan korxona va tashkilotlar rahbarlari belgilangan ish o‘rinlari tashkil etilishini to‘liq ta’minlasin.

5.Quyidagilar:

ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha ushbu qarorni bajarmagan, shuningdek, ularni ishga qabul qilishni asossiz ravishda rad etgan korxona va tashkilotlarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlik belgilanishi;

ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish sonidan ortiqcha ish o‘rinlari tashkil etgan korxona va tashkilotlarga – har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdori 2 baravari miqdorida subsidiyalar ajratilishi belgilab qo‘yilsin.

6.Tuman aholi bandligiga ko‘maklashish markazi (M.Abdiraimova) besh kun muddatda ushbu qaror ilovasida ko‘rsatilgan tashkilotlar rahbarlarining e’tiboriga yetkazsin va ushbu qaror bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlasin.

7.Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kirishi belgilansin.

8.Mazkur qaror “Janub quyoshi” gazetasida e’lon qilinsin va hokimlikning veb-saytiga joylashtirilsin.

9.Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Qalandarov zimmasiga yuklatilsin.

Termiz tuman hokimi **Urinov.SH.B**